

**NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD. 03/30.12.2019.T.90.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

NABIJONOV O‘TKIRBEK ASILBEK O‘G‘LI

**TUPROQQA ISHLOV BERISH MASHINALARI ISHCHI ORGANLARIGA
MAJBURIY TEBRANISHLAR BERISH USULINI ISHLAB CHIQISH**

05.02.02 –Mexanizmlar va mashinalar nazariyasi. Mashinashunoslik va mashina detallari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

NAMANGAN – 2025

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical
sciences**

Nabijonov O'tkirbek Asilbek o'g'li

Тупроққа ишлов берish mashinalari ishchi organlariga majburiy tebranishlar
berish usulini ishlab chiqish..... 3

Набижонов Ўткирбек Асилбек угли

Разработка способа передачи вынужденных колебаний рабочим
органам почвообрабатывающих машин..... 21

Nabijanov Utkirbek Asilbek ogli

Development of a method of forced vibrations on the working organs
of soil processing machines 39

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works 43

**NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD. 03/30.12.2019.T.90.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

NABIJONOV O‘TKIRBEK ASILBEK O‘G‘LI

**TUPROQQA ISHLOV BERISH MASHINALARI ISHCHI ORGANLARIGA
MAJBURIY TEBRANISHLAR BERISH USULINI ISHLAB CHIQISH**

05.02.02 –Mexanizmlar va mashinalar nazariyasi. Mashinashunoslik va mashina detallari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

NAMANGAN – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/T4668 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Namangan muhandislik-qurilish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.namdtu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Umurzakov Akramjon Xakimovich
texnika fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Djurayev Anvarjon Djurayevich
texnika fanlari doktori, professor

Nematov Erkin Hamrayevich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat texnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-qurilish instituti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.T.90.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "____" _____ soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 160103, Namangan, Islom Karimov ko'chasi, 12-uy. Tel.: (+99869) 234-15-23, faks: (+99869) 234-15-23, e-mail: info@namdtu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan muhandislik-qurilish instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160103, Namangan, Islom Karimov ko'chasi, 12-uy. Tel.: (+99869) 234-15-23, faks: (+99869) 234-15-23, e-mail: info@namdtu.uz.).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "_____" _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil "_____" _____ dagi № _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

N.G.Bayboboyev

Ilmiy daraja beradigan ilmiy kengash
raisi, t.f.d., professor

V.M.Turdaliyev

Ilmiy daraja beradigan ilmiy kengash
ilmiy kotibi, t.f.d., professor

A.X.Umurzaqov

Ilmiy daraja beradigan ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda mashinasozlik sohasini rivojlantirish, xususan, zamonaviy texnika va texnologiyalarni takomillashtirish, yangi konstruksiyalar yaratish hamda samarali texnik echimlarni asoslash, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni oshirish etakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Shu jihatdan, “Bugungi kunda dunyo bo‘yicha qishloq xo‘jaligi ekinlarni etishtirish uchun har yili 1,6 milliard gektar maydonga ekishdan oldin ishlov berilishi”¹ ni hisobga olsak, bu sohaga zamonaviy yondashish zarurligini ko‘rsatadi. Tuproqqa ishlov berish jarayonini modernizatsiyalash va uning samaradorligini oshirish maqsadida ishchi organlarga majburiy tebranish beradigan yangi avlod mexanizmlarni yaratish, ularni hisoblash usullarini ishlab chiqish hamda ishlab chiqarishga joriy etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu sababli, bugungi kunda tuproqqa ishlov beruvchi mashinalarini takomillashtirishda energiya va resurstejamkor vibratsion ishchi organli mexanizmlardan foydalanishga katta e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda yerlarga ekin ekish oldidan sifatli ishlov berishning resurstejamkor texnologiyalari va ularni amalga oshiradigan mashina va qurilmalarning yangi avlod konstruksiyalarini yaratish, mavjudlarini esa ish sifatini oshirish va uning texnik yechimlarini takomillashtirishning ilmiy texnikaviy asoslarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan bir qator maqsadli ilmiy tadqiqot ishlari olib borishni taqazo etmoqda. Ushbu yo‘nalishda, yangi vibratsiyali chizel-kultivator konstruksiyasini ishlab chiqish, hisoblash usullarini rivojlantirish, texnologik ish jarayonini asoslash, uni tuproq bilan o‘zaro ta’sirlashish jarayonida resurstejamkorlikni ta’minlash dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Respublikamiz qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida mehnat va energiya sarfini kamaytirish, resurslarni tejash, qishloq xo‘jaligi ekinlarini ilg‘or texnologiyalar asosida yetishtirish va yuqori ish unumiga ega qishloq xo‘jalik mashinalarini ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, jumladan yerlarni ekishga tayyorlashda kam energiya sarflagan holda belgilangan texnologik jarayonlarni ishonchli va sifatli bajarilishini ta’minlaydigan texnika vositalarini ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida, jumladan, “...qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o‘shishini qo‘llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini ko‘paytirishni nazarda tutuvchi sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish, er va suv resurslaridan oqilona foydalanish, fermer xo‘jaliklarida mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash”² vazifalari alohida belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda dalalarga

¹ www.fao.org/docrep/018/i1688ri1688r03.pdf.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853- son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi Farmoni.

urug' ekishdan oldin tuproqqa sifatli ishlov beradigan mashinalarni texnik va texnologik jihatdan takomillashtirish hisobiga qishloq xo'jaligi ekinlaridan yuqori hosil olish va ularning tannarxini pasaytirish muhim o'rin tutadi.

Mazkur dissertatsiya ishi 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2019 yil 31 iyuldagi PQ-4410-son "Qishloq xo'jaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish, agrar sektorni qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. "Energetika, energiya va resurstejamkorlik" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mexanizmlarni loyihalash, hisoblash, analiz va sintez qilish masalalari ilmiy jihatdan xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli yo'nalishlarda o'rganilgan. Jumladan, xorijiy olimlardan Jon Kreyg, Mark Uilyam, Vang Vey, L.V.Assur, P.L.Chebishev, P.O.Somov, A.A.Malishev, I.I.Artobolevskiy kabi olimlar, shuningdek, yurtimiz olimlari H.H.Usmonxo'jayev, A.D.Djurayev, G'.Sh.Zokirov, K.A.Karimov, Sh.P.Alimuxamedov, J.Muxamedov, A.X.Umurzaqov, Sh.Sh.Kenjaboyevlar shug'ullanishgan.

Xorijda va Respublikada tuproqqa ishlov beruvchi mashinalarga, xususan ishchi organlarga tebranish berish bo'yicha ham ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, xorijda H.P.Harrison, J.G.Hendrick, A.A.Dubrovskiy, I.I.Burmin, I.I.Bixovskiy, A.M.Nagayka, N.S.Drozdov, S.E.Kutubidze, R.M.Zonnenberg, G.E.Svirskiy, A.A.Povar, P.I.Butanovichyus kabi olimlar tomonidan, yurtimizda esa, A.X.Umurzaqov, A.A.Nasritdinov va boshqa olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Ushbu tadqiqotlar natijasida yaratilgan mashina va mexanizmlar ishlab chiqarishning turli sohalarida qo'llanilgan va muayyan ijobiy natijalarga erishilgan. Biroq, Respublikamizda tuproqqa ishlov berish mashinalarining ishchi organlariga majburiy tebranish beruvchi mexanizmning konstruksiyalari hamda ularni hisoblash usulini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha o'tkazilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Namangan viloyati hududiy innovatsiya faoliyati va texnologiyalar transferi markazida 2022-2024 yillarda amalga oshirilgan "AL-5121081266"-sonli "Tuproqqa ishlov beruvchi qishloq xo'jaligi texnikalarining vibratsion mexanika prinsiplariga asoslangan yangi avlod konstruksiyalarini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tuproqqa vibratsion ishlov beruvchi mexanizm konstruksiyasini va uning ishchi organlariga majburiy tebranish berish usulini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mavzuga oid adabiyotlar sharhi va patent izlanishlarini olib borish;
vibratsion chizel-kultivatorning yangi konstruktsiyasini ishlab chiqish;
vibratsion mashinaning ishchi organlarini strukturaviy tahlil qilish;
majburiy tebranish hosil qiluvchi mexanizmning kinematik tahlil qilish orqali uning harakat qonunlarini ifodalovchi grafiklarni qurish va vibratorda yuzaga keladigan markazdan qochma kuchni aniqlash imkonini beradigan analitik ifodani olish;

chiqish zvenosi harakatining hisob sxemasi va modelini ishlab chiqish;

dinamik tahlillar yordamida tuproqqa ishlov beruvchi mashinaning dinamik va matematik modellarini tuzish hamda harakat qonuniyatlarini aniqlash;

vibratsion chizel-kultivatorning ishga layoqatliligini va uning asosiy parametrlari orasidagi bog'lanishlarni aniqlash uchun eksperimental tadqiqotlar o'tkazish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida tuproqqa erta bahorda va takroriy ekin ekish oldidan ishlov beradigan chizel-kultivator va uning ishchi organiga majburiy tebranish beruvchi mexanizm olingan.

Tadqiqotning predmeti chizel-kultivator ishchi organlariga majburiy tebranish beruvchi mexanizmning strukturasi, kinematik, dinamik va uning (matematik) modellari, mexanizmning parametrlari, ishlash tamoyillari va ko'rsatkichlari hamda ularning harakat qonunlari va parametrlarining maqbul qiymatlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot o'tkazish jarayonida umumiy tadqiqot usullaridan, jumladan, nazariy tadqiqotlarda ishlab chiqilgan tebranma ishchi organli kultivatorning geometrik, kinematik va dinamik parametrlarini aniqlashda nazariy mexanika, mexanizmlar nazariyasi va mashina detallarining analitik usullaridan, dinamik masalarni yechishda matematik modellashtirish usullaridan, tajriba-sinovlarini o'tkazishda mashinalarni sinash va tenzometriya usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ustunlarini o'zaro bog'lovchi balka markaziga o'rnatilgan yo'nalishli inertsiya vibrator bilan jihozlangan va o'z navbatida rezonans effektidan foydalanish imkonini beradigan vibratsion chizel-kultivatorning konstruktsiyasi ishlab chiqilgan;

tuproqqa vibratsion ishlov beruvchi chizel-kultivator tebranuvchi mexanik tizim sifatida qaralib, uni strukturaviy va kinematik tadqiq qilish orqali ortiqcha bog'lanishlarni, geometrik va kinematik parametrlarni aniqlash imkonini beradigan matematik ifodalar ishlab chiqilgan;

tebranuvchi rama harakatini ikki yelkali richag ko'rinishidagi mexanik tizimga keltirilib, uning dinamik modeli chiziqli differentsial tenglamalar olishga imkon bergan va ular asosida vibratsion qurilmaning asosiy parametrlari (prujina bikirligi, tebranish amplitudasi, chastotasi, energiya sarfi) orasidagi funktsiyali bog'lanishlar aniqlangan;

vibratsion ishchi organ bilan tuproqqa ishlov berishda energiya sarfini minimal darajaga tushirish maqsadida tebranishlarda paydo bo'ladigan rezonans

effektidan foydalanish usuli tuproqning turli xil fizik-mexanik xossalarini e'tiborga olgan holda ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

majburiy tebranishlar berish orqali ishchi organlarning tuproqqa ta'sirini ortishi natijasida, tuproqni maydalanish jarayonini yaxshilaydigan va tuproqning strukturasi samaraliroq o'zgartiradigan yangi konstruktsiya ishlab chiqilgan va parametrlarini hisoblashni ilmiy asoslari takomillashtirilgan;

majburiy tebranishlar yordamida tuproqqa ishlov beradigan agregat ishlab chiqilganligi natijasida agregatga yuklanadigan kuch va energiya sarfini kamaytirishga hamda kichik mexanik quvvat bilan ish unimining ortishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning zamonaviy uslub va vositalardan foydalangan holda o'tkazilganligi, vibratsion kultivatorning parametrlarini nazariy jihatdan asoslashda nazariy mexanika va oliy matematika qoidalari asosida bajarilganligi, tajribali tadqiqotlar tenzometrik usullardan foydalanib o'tkazilganligi, vibratsiyali chizel-kultivator sinovlarining ijobiy natijalari va amaliyotda joriy etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tuproqqa ekin ekish oldidan ishlov beradigan tebranma ishchi organli kultivatorning konstruktsiyalari va ularni parametrlarini hisoblash usullari ishlab chiqilganligi, shuningdek, tadqiqot natijalari nazariy hamda tajribaviy izlanishlarga asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotlar natijasining amaliy ahamiyati tebranma ishchi organning tuproqni yuza qismlariga oson kirishi, uni yumshatishda tuproqning titilishini yaxshilash va zichligini kamaytirish hamda an'anaviy kultivatorlarga nisbatan tuproq bilan o'zaro ta'sirlashuvni samarali kechishi, bu esa energiyani tejalishiga ya'ni yoqilg'i sarfi pasayishi va ishlash resursining ortishini ta'minlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tuproqqa ishlov berish mashinalari ishchi organlariga majburiy tebranishlar berish usulini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tuproqqa ishlov berish mashinalari ishchi organlariga majburiy tebranish beruvchi chizel-kultivatorga Adliya vazirligi huzuridagi "Intellectual mulk markazi" dan foydali model uchun patent olingan ("Vibratsiyali chizel-kultivator", FAP 2536 - 15.07.2024 y.). Natijada, og'ir mexanik tarkibli tuproqlarga ishlov beradigan chizel-kultivator agregatining konstruksiyani ishlab chiqish imkoniyati yaratilgan;

ishlab chiqilgan og'ir mexanik tarkibli tuproqlarga ishlov beradigan chizel-kultivator Namangan viloyat Chust tumani "Xabibullo Abdullayev" fermer xo'jaligida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 23-oktabrdagi 05/04-04-529-son ma'lumotnomasi). Natijada, tortishga qarshilik kuchini kamayishi, ish sifatini ortishi, yonilg'i sarfini kamayishi hisobiga qishloq xo'jaligi ekin maydonlarini tayyorlash uchun sarflanadigan xarajatlarni 9-10% gacha kamayishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya materiallari yuzasidan 11 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan hamda O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk Markazining 1 ta foydali model uchun patenti olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 115 betni tashkil qiladi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot ob'yekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mos kelishi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalar ishonchliligi asoslangan, olingan natijalarni nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Mavzu bo'yicha ilmiy-texnik adabiyotlar va patent materiallar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida tuproqqa ishlov berish mashinalari ishchi organlariga majburiy tebranishlar berish usulini ishlab chiqishni takomillashtirish ustida olib borilgan tadqiqotlarning zamonaviy holati bo'yicha yurtimiz, xorijiy adabiyotlar, internet ma'lumotlari hamda respublika qishloq xo'jaligi mashinalarining rivojlanish tendensiyasi o'rganilgan. Tuproq yuzasiga ishlov berish texnologiyalari, tuproqqa vibratsiyali ishlov berish agregatlari va vibroqo'zg'atuvchilarning konstruktsiyalarining tahlili ko'rib chiqilgan. Tuproqqa mexanik ishlov berish jarayonida tortishga qarshilikni kamaytirish, ishlov berayotgan tuproqning sifatini oshirish uchun, tuproqqa yuzasiga ishlov beruvchi mashinalarning ishchi organlarni takomillashtirish, hamda nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish kerakligi aniqlangan. Tuproqqa ishlov beruvchi mavjud agregatlarning afzallik va kamchilik taraflari aniqlangan. Tahlil davomida tuproqqa ishlov berish mashinalarini yangi sxemalarini ishlab chiqish yo'llari aniqlangan.

Dissertatsiya ishining **“Majburiy tebranish hosil qiluvchi mexanizmning konstruktiv sxemasini ishlab chiqish va uning kinematik tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida vibratsion chizel-kultivatorining konstruktiv sxemasi ishlab chiqilgan. Tuproq yuzasiga ishlov beruvchi vibratsion mexanizmning strukturasi va majburiy tebranish hosil qiluvchi inertsiya vibratorning kinematikasi tahlil qilingan. Vibratsion mexanizmning tezligi va tezlanishini analitik usulda aniqlash uchun ifodalar aniqlandi. Tebranuvchi ramaning inertsiya momentini nazariy tadqiq etish bo'yicha o'tkazilgan nazariy tadqiqotlar natijalari olingan.

Patentlar va adabiyotlar bo'yicha o'tkazilgan tahlillar va xulosalar asosida vibratsion chizel-kultivatorning yangi konstruktiv sxemasi ishlab chiqildi (1-rasm). Ushbu konstruksiyaning yangiligi O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk markazi tomonidan e'tirof etildi va unga patent olindi.



- 1- qo'zg'almas ustun; 2- qo'zg'almas rama; 3- ustun qulfi;
 4- mahkamlagich; 5- barmoqli sharnir; 6- yumshatuvchi ustun;
 7- kesuvchi ishchi organ; 8- qo'zg'aluvchan rama;
 9- tebranish yo'nalishini rostlagich;
 10- yo'nalishli inersion vibrator va 11- prujina


1-rasm. Vibratsion chizel-kultivatorning konstruktiv sxemasi

Vibratsion chizel-kultivator konstruksiyasi quyidagicha ishlaydi: Qurilma ishga tushirilganda kesuvchi ishchi organ 7 ga tuproqdan tushayotgan qarshilik kuchini bir qismi qo'zg'almas ustun 1 ga barmoqli sharnir 5 bilan bog'langan ustun 6 ni ma'lum burchakka burib prujina 11 ni siqib boradi. Tuproqning uvalanishi uchun kerak bo'ladigan kuch prujina 11 da to'planganda kesuvchi ishchi organ 7 tuproqni uvalaydi va shu jarayon davomida qurilmaning xususiy tebranishi sodir bo'ladi. Qo'zg'aluvchi rama 8 yuqorisiga o'rnatilgan vibrator 10 qurilmaning xususiy tebranishiga mos ravishda ustun 6 ni titratadi.

Vibratsion kultivator tuproq yuzasiga ishlov beruvchi mashinaning ishchi organlarini tuproqqa ishlov berish samaradorligini oshirish uchun ishlab chiqilgan bo'lib, bundagi vibratsion harakatlanuvchi ishchi organlar tuproqning yuqori qatlamlarga ishlov beradi hamda analoglarga nisbatan kam energiya sarflaydi.

Mexanizm zvenolarining almashtirish zarurati ko'pincha mexanizmlarning murakkab harakatlarini osonlashtirish yoki belgilangan funktsiyani bajarish uchun oddiyroq tuzilishga ega mexanizmlar yaratish maqsadida amalga oshiriladi. Ushbu jarayon "almashtirilgan mexanizm" deb ataladi.

Ushbu mexanizmni strukturaviy tekshirishda almashtirilgan zvenolardan foydalanildi. Qo'zg'almas rama hamda qo'zg'aluvchi ramani bir-biriga siqiluvchi prujina yordamida bog'langan. Bu prujina o'rniga porshenli shtok va silindr zvenolari o'rnatildi (2-rasm).



1- koromislo, 2- shtok, 3- silindr, 4- stoyka

2-rasm. Almashtirilgan mexanizmning strukturaviy sxemasi

Zvenolarni bunday almashtirilishi biz uchun muhim bo'lgan tebranuvchi ramani va u bilan qo'zg'almas biriktirilgan ishchi organlarni harakat qonuniyatlariga, mexanizmning erkinlik darajasiga ta'sir etmaydi. Bunday almashtirishlardan asosiy maqsad mexanizmdagi ortiqcha bog'lanishlarni aniqlash va ularni mumkin qadar kamaytirishdan iboratdir.

Tuproq yuzasiga ishlov beruvchi vibratsion mexanizmning erkinlik darajasini aniqlash uchun P.L.Chebishev formulasidan foydalanamiz:

$$w = 3n - (2P_5 + P_4 - q_T), \quad (1)$$

bunda n -qo'zg'aluvchi zvenolarlar soni; P_5 - beshinchi sinf (quyi) kinematik juftlar soni; P_4 -to'rtinchi sinf (oliy) kinematik juftlar soni; q_T -tekis mexanizmdagi ortiqcha bog'lanishlar soni.

P.L.Chebishev formulasining asosiy vazifasi mexanizmdagi bog'lanishlar va elementlar orasida uning qanday harakatlanishini aniqlashdir. Shu bilan birga, bu formuladan turli xildagi mexanizmning erkinlik darajasini hisoblashda foydalaniladi.

Yuqoridagi (1) formuladan ortiqcha bog'lanishlarni aniqlasak bo'ladi. Buning uchun mexanizmning erkinlik darajasi ma'lum bo'lishi kerak. Qo'zg'aluvchan rama harakatini ramaning sharnir atrofida burilishini ko'rsatadigan φ burchak to'liq aniqlaydi. Demak, tebranuvchi ramaning erkinlik darajasi birga teng bo'ladi, ya'ni $w = 1$.

Agar ortiqcha bog'lanishlar bo'lmasa, ya'ni $q = 0$ bo'lsa mexanizm zvenolari yig'ilganda deformatsiyalanmaydi, ya'ni L.I.Reshetov tili bilan aytganda o'zi o'rnashadi. Bunday mexanizmlarni o'zi o'rnashuvchi mexanizmlar deyiladi. Agarda ortiqcha bog'lanishlar mavjud bo'lsa ($q > 0$), u holda mexanizmni yig'ishda va harakatlanishida zvenolar deformatsiyalanadi. Mexanizmdagi ortiqcha bog'lanishlarni, ya'ni q ni bartaraf etish, mexanizmni qo'zg'aluvchanligini o'zgartirmaydi. Faqat mexanizm statik noaniq sistemadan statik aniq sistemaga aylanadi.

Vibratsion chizel-kultivator ishchi organlarini kinematikasini tekshirish ham muhim ahamiyatga ega. Tebranuvchi ishchi organning asosiy kinematik parametrlariga quyidagilarni kiritamiz: tebranuvchi ishchi organning xarakterli nuqtasi, bu uning tuproq bilan bevosita kontaktida bo‘ladigan va tuproqni yoradigan uch qismidir (4-rasm, C nuqta), ya’ni aynan shu nuqtaning ko‘chishi chizig‘iy tezligiga v va tezlanishi a tebranish amplitudasi \mathcal{A} va chastotasi ω .

Qo‘zg‘aluvchi rama va unga mahkam o‘rnatilgan ishchi organlar paralel vertikal tekisliklar bo‘yicha, O sharnir atrofida aylanma-tebranma harakat qiladi. Uni O nuqta atrofida aylanadigan va uzunliklari l_1 va l_2 bo‘lgan ikki yelkali richak sifatida qarashimiz mumkin. $\overline{BC} = l_1$ va $\overline{BA} = l_2$ lar bir-biriga teng emas. Bizning konstruksiyamizda l_2 yelka l_1 dan ikki barobar uzun, ya’ni $l_1 = 340$ mm, $l_2 = 680$ mm.

Vibrator o‘rnatilgan A nuqtasining qo‘zg‘almas deb qabul qilingan ramaga nisbatan tebranma harakati x o‘qi bo‘yicha bo‘lib o‘tadi deb qabul qilishimiz mumkin. Chunki A nuqta $10 \div 20$ mm li amplituda bilan tebranganda ishchi organ ustuni $1^\circ \div 2^\circ$ ga buriladi xolos. Bunda A nuqta xarakatlanadigan yoyning va uning gorizantal x o‘qidagi proektsiyasi orasidagi farq 2% dan katta emas. Shuning uchun richagning A nuqtasi ham, C nuqtasi ham x o‘qi bo‘ylab tebranadi deb olishimiz qurilmaning kinematik tahlilni ancha osonlashtiradi.

Tebranayotgan zvenodagi A nuqtaning vibratsion harakat tenglamasi umumiy holda quyidagicha yoziladi:

$$x(t) = \mathcal{A}_A \sin(\omega t + \varphi_0), \quad (3)$$

bunda $x(t)$ -harakatning ko‘chishi, ya’ni vaqtga qarab tanlangan boshlang‘ich nuqtadan qanchalik uzoqlashayotganini ko‘rsatadi; \mathcal{A}_A -tebranishning amplitudasi, ya’ni maksimal ko‘chish qiymati. Bu qiymat tebranish mexanizmining qanchalik katta harakatlanayotganini ko‘rsatadi; ω -burchak tezlik, harakatning tezligini ifodalaydi va rad/sekundda o‘lchanadi. Bu parametr chastota bilan bog‘liq bo‘lib, tebranishning tezroq yoki sekinroq harakatini aniqlaydi; t -vaqt; φ_0 -boshlang‘ich faza, tebranishning boshlang‘ich holatini ifodalaydi. Agar tebranish $t = 0$ da boshlansa, φ_0 fazani belgilaydi.

Bizni qiziqtiradigan asosiy masala bu ishchi organning (C nuqtaning) kinematikasidir. Ishchi organ qo‘zg‘almas ramaga nisbatan aylanma-tebranma harakatidan tashqari u traktor bilan birgalikda ma’lum \mathcal{V}_t tezlikda x o‘qi bo‘ylab harakatlanadi. Demak C nuqtamiz ham tebranma, ham ilgarilanma harakat qiladi.

Uning harakatini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$x(t) = \mathcal{V}_t t + \psi \mathcal{A}_A \sin(\omega t + \varphi_0 + \pi), \quad (4)$$

bunda \mathcal{V}_t - traktor tezligi; ψ -yelkalar nisbati koeffitsiyenti.

Ishchi organning (C nuqtaning) tezligini topish uchun (4) ifodadan vaqt bo‘yicha bir marta hosila olib aniqlaymiz:

$$v_c = \mathcal{V}_t + \psi \cdot \omega \mathcal{A}_A \cos(\omega t + \varphi_0 + \pi). \quad (5)$$


C nuqtaning tezlanishini (4) ifodadan hosila olib topamiz:

$$a_c = -\psi \cdot \omega^2 \mathcal{A}_A \sin(\omega t + \varphi_0 + \pi), \quad (6)$$

bunda a_c -vaqtga bog'liq holda tebranish tezlanishi.

Biz taklif etgan inertsiyon vibratorning asosiy tuzilishi quyidagicha: rotor (inertsiyon vibratorning asosiy qismi), rama (statik yoki harakat qilmaydigan qismi) va debalns massasi (markazdan siljirilgan yuk) dan iborat (5-rasm).

Yo'naltirilgan vibratsion kuchni olish uchun odatda ikki (qo'sh) rotorli vibratorlar ishlatiladi. Rotorlar bir-biriga qarama-qarshi aylanadi. Debalanslar esa bir-biriga mutonosib o'rnatiladi.



$m_1 m_2$ -rotorlardagi debalns massasi; $r_1 r_2$ -debalns masofasi; $\omega_1 \omega_2$ -tishli g'ildiraklarni burchak tezligi; $D_1 D_2$ -tishli g'ildiraklarni diametri; $F_1 F_2$ -markazdan qochma kuchlar

5-rasm. Inertsiyon vibratorning kinematik sxemasi

Inertsiyon vibratorda markazdan qochma kuch yuzaga keladi. Markazdan qochma kuch bu-vibratorda tebranish hosil qilishda muhim o'rin tutadi.


Ushbu markazdan qochma kuchni aniqlash uchun umumiy bo'lgan formulani yozamiz:

$$F = m \cdot r \cdot \omega^2, \quad (7)$$

bunda F -markazdan qochma kuch, N; m -debalns massasi, kg; r -debalns markazigacha bo'lgan masofa, m; ω -tishli g'ildirakni burchak tezligi, rad/s.

Dissertatsiya ishining “**Vibratsion mexanik tizim harakatining nazariy tadqiqi (dinamik tahlili)**” deb nomlangan uchinchi bobida chiqish zvenosi harakatining hisob sxemasi va dinamik modeli ishlab chiqilgan, ishlash jarayonida konstruksiyasining harakterli zvenolari va nuqtalariga ta'sir etuvchi kuchlar aniqlangan, tebranuvchi ramaning qovushqoq qarshilikdagi erkin tebranishlari uchun qovushqoq demfirlovchi elementlar hisobga olgan holda differentsial harakat tenglamalari tuzilgan, mexanik tizimning majburiy tebranishlari, rezonans effektidan foydalanishga oid nazariy tadqiqot natijalari bayon etilgan.

Konstruktsiyaning o'ziga xos tomoni shundaki, u ikkita ramadan iborat bo'lib, birinchi rama traktorga ulanadi. Ikkinchisi esa birinchi ramaga sharnirli bog'langan. Bu esa ularni o'zaro bir-biriga nisbatan qo'zg'aluvchanligini ta'minlaydi (6-rasm).



1- qo'zg'almas rama;
2- qo'zg'aluvchi rama

6-rasm. Vibratsion kultivatorning konstruktiv sxemasi


Ishchi organlar va vibroqo'zg'atgich ikkinchi ramaga qo'zg'almas bikir ravishda o'rnatilgan. Ishlash jarayonida birinchi rama traktorga nisbatan qo'zg'almaydi, ikkinchi rama esa ularga nisbatan qo'zg'aluvchan bo'lib tebranma harakat qiladi degan shartni qabul qilish mumkin.

Dastlab, ishlash jarayonida konstruktsiyaning harakterli zvenolari va nuqtalariga ta'sir etadigan kuchlarni aniqlab olamiz: agregatga traktor tomonidan ta'sir etadigan F_t -tortish kuchi, ya'ni harakatlantiruvchi kuch; vibroqo'zg'atkich tomonidan ikkinchi ramani tebratadigan F_b -davriy qo'zg'atuvchi kuch (vibratsion kuch), bu kuch ishchi organ stoykasiga nisbatan perpendikulyar yo'naladi; ikkita ramani bog'lab turuvchi prujining deformatsiyalanishi natijasida hosil bo'ladigan elastiklik F_e kuchi, ya'ni tiklovchi kuch; ishchi organga ta'sir etuvchi va unga perpendikulyar yo'nalgan F_q qarshilik kuchi, bu kuch bir necha kuchlarning yig'indisidan iborat; G -kultivatorning og'irlik kuchi va bog'lanishlardagi ichki F_r kuchlar, ya'ni dinamik yuklanishlar oqibatida paydo bo'ladigan reaksiya kuchlari.

Kultivatorning og'irlik kuchi, ikkita rama, vibrator va ishchi organlar massasiga bog'liq.

Agregatimiz ishlagan paytda dinamik yuklanishlar va zarblar tufayli ikki ramani bog'lab turuvchi sharnirlarda F_r reaksiya kuchlar yuzaga keladi. Bu reaksiya kuchlari sharnirli bog'lanishlarni ishonchli ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun reaksiya kuchlar miqdorini mumkin qadar kamaytirish kerak bo'ladi. Ushbu masalani yechimi ham ijobiy hal etilgan bo'lib keyingi paragrlarda keltirilgan.

Dastlab, kultivatorning konstruktiv sxemasiga, unga ta'sir etayotgan faol kuchlarni o'z yo'nalishi bo'yicha qo'yamiz (7-rasm).




7-rasm. Kultivatorga ta'sir etayotgan kuchlar

Vibratsion kultivatorning konstruktiv sxemasidan ko'rinadiki, ishchi organlar va vibrator o'rnatilgan ikkinchi rama birinchi rama bilan sharnirlar va prujinalar orqali bog'langanligi tufayli ular o'zaro tebrana oladi, ya'ni tebranuvchi mexanik tizim hosil qiladi.

Demak, birinchi ramani qo'zg'almas deb faraz qilsak, ikkinchi rama unga nisbatan aylanma-tebranma harakat qiladi. Barcha ishchi organlar paralel tekisliklarda tebranadi. Tizimning xususiy tebranishlar chastotasi ikkinchi ramaning sharnirga nisbatan inertsiya momenti va prujinalarning bikirlik koeffitsientlariga bog'liq bo'ladi. Ishchi organlarning tuproqdagi tebranma harakatini tadqiq etish uchun dastlab vibrator ishga tushirilmagandagi erkin tebranishlarini o'rganib chiqamiz.

Tebranuvchi mexanik tizimning klassik modelidan foydalangan holda kultivatorning ikkinchi ramasiga tuproq ta'sir etadigan holatdagi erkin tebranishlarini o'rganib chiqamiz (8-rasm). Dempfirdagi suyuqlikning tezlikka proporsional bo'lgan qarshilik kuchi, tuproqning qarshilik kuchini ifodalaydi. Jamlangan massa tebranuvchi ramaning inertsiya momentiga ekvivalent. Prujina esa ikki ramani bog'lab turuvchi prujinalarga mos keladi.



8-rasm. Kultivatorni ikkinchi ramasining qovushqoq qarshilikdagi erkin tebranishlari modeli

Modeldagi jamlangan massa harakatining differentsial tenglamasi quyidagicha bo'ladi:

$$m\ddot{x} = -cx - h\dot{x}, \quad (8)$$

bunda h -qovushqoq dempirlash doimiysi bo'lib, tezlik birligiga to'g'ri kelgan kuchdir. Uning oldidagi minus ishora dempirlash kuchi doimo tezlikka qarama-qarshi yo'nalganligini bildiradi; m -jamlangan massa; c -prujinani bikirlik koeffitsiyenti.

(8)- tenglamani chap va o'ng tomonini m ga bo'lib, va


$$p^2 = \frac{c}{m}; 2n = \frac{h}{m}, \quad (9)$$

belgilashlar kiritib, qovushqoq qarshik bo'lgandagi ikkinchi ramaning erkin tebranishlar tenglamasini olamiz:

$$\ddot{x} + 2n\dot{x} + p^2x = 0. \quad (10)$$

Ushbu tenglama ikkinchi tartibli o'zgarmas koeffitsiyentli chiziqli differentsial tenglamadir. Uning umumiy yechimi ko'plab adabiyotlarda keltirib chiqarilgan.

Mexanik tizimning majburiy tebranishlari. Ushbu masala bo'yicha nazariy tadqiqotlarga kirishishdan oldin vibratsion kultivatorimizga ya'na bir bor murojat qilamiz (9-rasm). Vibrator o'rnatilgan ikkinchi rama Sh nuqtada birinchi ramaga sharnirli biriktirilgan, P nuqtada esa prujina vositasida bog'langan va tebranuvchi mexanik tizim hosil qilgan. Ya'ni ishchi organlar qo'zg'almas qilib o'rnatilgan ikkinchi ramani Sh sharnir atrofida qandaydir φ burchakka bursak, P nuqtadagi prujina cho'zilishi yoki siqilishi tufayli prujinada ramani itaruvchi φ burchakka proporsional bo'lgan elastiklik kuchi paydo bo'ladi. Ikkinchi ramani φ burchakka burib so'ng qo'yib yuborsak, u Sh sharnir atrofida xususiy P chastota bilan garmonik tebranadi. Tebranma harakat amplitudasi burilish burchagi φ ga, chastotasi esa prujinaning bikirligiga va ramaning inertsiya momentiga bog'liqdir.




9-rasm. Vibratsion kultivator sxemasi

Agar qo'zg'aluvchi ikkinchi ramaga davriy garmonik kuch ta'sir etsa va uning ω chastotasi ramaning xususiy tebranishlar chastotasiga mos keltirilsa (tenglashtirilsa) ramaning tebranishlar amplitudasi cheksiz ortib ketadi. Ya'ni rezonans hodisasi sodir bo'ladi. Biroq tuproqning tebranishga ko'rsatadigan qarshilik kuchi hisobiga amplituda chekli qiymatga ega bo'ladi. Tuproqda ishchi organlarni tebranish jarayoni qanday kechishi, tebranma harakat karakteristikalariga qanday omillar ta'sir etishi, belgilashi kabi masalalarni quyidagi nazariy tadqiqotlarimiz orqali o'rganib chiqamiz va baho beramiz. Buning uchun kultivatoridagi tebranuvchi tizimni dinamik modelini quramiz bunda bir qator farazlar va o'zgartirishlar qabul qilamiz. Ishchi organlarimiz uncha katta bo'lmagan burchak amplitudasida tebranganligi uchun ikkinchi ramani, vibratorni va stoykalarini jamlangan m massa deb, u gorizontaal yo'nalishda harakatlanadi, u massaga barcha qarshilik kuchlarini umumlashtirgan qovushqoq qarshilik kuchi va prujinaning elastiklik kuchi ta'sir etadi deb qabul qilamiz (10-rasm). Bunday qabul qilishlar modelni chiziqli bo'lishini ta'minlaydi. Natijada tebranma harakatni chiziqli differentsial tenglama bilan yozish mumkin bo'ladi.

Kultivatorning ramasi va ishchi organ stoykalarining deformatsiyalanishi prujinaning deformatsiyalanishiga nisbatan juda kichik bo'lganligi uchun ularni deformatsiyalanmaydi deb hisoblaymiz. Shunda, tadqiqot uchun qabul qilgan

modelimiz va tenglamamiz ishchi organlarni tuproq ichidagi tebranishlarini biz uchun yetarli bo‘lgan darajada ifodalab beradi.



10-rasm. Kultivatordagi tebranuvchi ramaning dinamik modeli

Tebranuvchi tizim harakatni ifodalaydigan differentsial tenglamani Lagrangning II-tur tenglamasidan foydalanib yozishimiz mumkin. Dinamik modelimizning yana bir qulayligi shundaki, unga asosan to‘g‘ridan-to‘g‘ri Nyutonning ikkinchi qonuniga muvofiq harakatning differentsial tenglamasini yoza olamiz. Bunda texnologik qarshilik qovushqoq qarshilik tarkibida deb hisoblaymiz.

$$m\ddot{x} = -cx - h\dot{x} + F_g \cos \omega t, \quad (11)$$

bunda $F_g = m_1 r \omega^2$ -vibrator hosil qilgan markazdan qochma kuch; m_1 -debalans massasi; r -rotor markazidan debalans markazigacha bo‘lgan masofa; ω -vibrator rotorining burchak tezligi; m -ikkinchi ramaning sharnir o‘qiga nisbatan inertsiya momentiga ekvivalent bo‘lgan massa.

Dissertatsiyaning “**Tajribaviy tadqiqotlarni o‘tkazish usullari va iqtisodiy samaradorlik hisobi**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida nazariy tadqiqotlar natijalarini tekshirib ko‘rish hamda tuproqqa ishlov berish uchun qo‘llaniluvchi majburiy tebranishlar hosil qiluvchi mexanizmning konstruksiyasi parametrlarining maqbul qiymatlarini asoslash maqsadida o‘tkazilgan tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.

Vibratsion chizel-kultivatorning konstruksiyasi nazariy va eksperimental tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, unda tebranishni yuzaga keltiruvchi vibroqo‘zg‘atuvchi mexanizmning yetakchi valining aylanish chastotasi, tebranish amplitudasi, prujinaning bikirligi va qurilmaning chiziqli harakati aniqlanadi. Ushbu parametrlar energiya sarfining minimal bo‘lish shartidan kelib chiqib tanlangan. Asoslangan tur va parametrlarga ega bo‘lgan tuproqqa ishlov beruvchi mashinalari uchun yo‘naltirilgan vibroqo‘zg‘atuvchi mexanizmning konstruktiv yechimi taqdim etilgan bo‘lib, uning tajriba namunasi, dala sinovlari natijalari va iqtisodiy samaradorligi keltirilgan. O‘tkazilgan hisob-kitoblar natijasida yangi vibratsion chizel-kultivatordan foydalanish ish jarayonida mehnat sarfini 2,9% ga, yonilg‘i sarfini 6,25% ga va bir gektarga tushadigan umumiy ekspluatatsiya harajatlarini 4,43% ga kamaytirishi aniqlandi. Shu orqali agregat yiliga o‘rtacha 150 gektar erga ishlov berganda, yillik iqtisodiy samaradorlik 1 821 442 so‘mni tashkil etishi ma‘lum bo‘ldi. Ushbu natijalar yangi texnikadan foydalanish iqtisodiy jihatdan to‘liq asoslanganini ko‘rsatadi.

XULOSA

“Tuproqqa ishlov berish mashinalari ishchi organlariga majburiy tebranishlar berish usulini ishlab chiqish” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi doirasida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi:

1. Tuproq yuzasiga ishlov berish texnologiyalarining turli usullari qishloq xo‘jaligiga moslashtirilgan bo‘lib, har bir usulning o‘zining afzalliklari va kamchiliklari bor. Tuproqqa ishlov berish mashinalarini takomillashtirish va ularning texnik tavsiflarini yaxshilashga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlil qilindi. Ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanganidek, tebranishli (vibratsiyali) mexanizmlardan foydalanish ishchi organlar harakatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, vibratsion ta’sir hisobiga ishchi organlar bilan tuproq o‘rtasidagi qarshilik 60% gacha kamayadi, ularning yeyilish darajasi pasayadi va quvvat sarfi kamayadi. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, vibratsiyaning foydali ta’siri tebranish chastotasi va amplitudasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ayniqsa 5-14 Hz chastotali va 3-5 mm amplitudali tebranishlar eng samarali natijalarni beradi. Ushbu texnologiya orqali yoqilg‘i tejaladi, tortishga qarshilik kamayadi va agrotexnik ko‘rsatkichlar yaxshilanadi, bu esa hosildorlikning oshishiga xizmat qiladi. Shu sababli vibratsion ishlov berish texnologiyalari zamonaviy qishloq xo‘jaligida energiyatejamkor, ekologik jihatdan maqbul va innovatsion yondashuv sifatida alohida ahamiyatga ega. Tahlil davomida tuproqqa ishlov berish mashinalarini yangi sxemalarini ishlab chiqish yo‘llari aniqlandi.

2. Vibratsion mexanizmlar ichida mexanik debalansli vibratorlar soddaligi, ishonchliligi va ishlab chiqarishdagi iqtisodiy samaradorligi bilan ajralib turadi. Ular konstruktiv tuzilishi bo‘yicha sodda bo‘lishiga qaramay, turli agrotexnik sharoitlarda samarali ishlash imkonini beradi. Vibroqo‘zg‘atuvchilarning boshqa turlari - planetar, elektromagnitli, gidravlik va pnevmatik vibratorlar ham mavjud bo‘lib, ularning har biri muayyan sharoitlarga moslashgan. Biroq, mavjud tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aynan debalansli mexanik vibratorlar universal qo‘llanilish imkoniyati va texnik xizmat ko‘rsatishning qulayligi jihatidan eng istiqbolli variantlardan biri hisoblanadi. Bu texnologiyalarni yanada takomillashtirish va amaliyotga joriy etish orqali qishloq xo‘jaligi texnikasining samaradorligini oshirish mumkinligi aniqlandi.

3. Vibratsion chizel-kultivatorning konstruktiv sxemasi ishlab chiqildi va uning asosiy tarkibiy qismlari hamda ish prinsiplari o‘rganildi. Tebranuvchi ishchi organli tuproqqa ishlov beruvchi mashina konstruksiyasining strukturaviy va kinematik tahlillari olib borildi. Vibratsion ishchi organli mexanizmlarda asosiy harakatni hosil qiluvchi tebranuvchi ramani erkinlik darajasi $w = 1$ ga teng bo‘lib, bu tizimning asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Tahlillar asosida mexanizmda mavjud bo‘lgan 6 ta ortiqcha bog‘lanishdan 2 tasi kinematik juftlikni olib tashlash orqali kamaytirildi va natijada tizimning strukturaviy barqarorligi saqlangan holda ortiqcha bog‘lanishlar soni 2 taga yetkazildi. Vibratsion harakat beruvchi inertsiyon mexanizmning asosiy parametrlari hududimizdagi tuproqning fizik-mexanik xossalari asosida belgilandi. Xususan, tebranish amplitudasi

$A=5\div 10$ mm, chastotasi esa $f=10\div 20$ Hz etib tanlangani tuproqni maydalanish darajasi va agrotexnik ko'rsatkichlarini optimal holatda ushlab turish imkonini beradi. Ishlab chiqilgan tebranuvchi mexanizmda ikki rotorli inertsiya vibrator qo'llanilgan bo'lib, har bir rotor 4 tadan 500 grammlilik yukchaga ega. Rotorlar aylanish chastotasi $600 \div 900$ ayl/min oralig'ida bo'lib, bu tizimda ishchi organlar uchun zarur bo'lgan $f = 10\div 20$ Hz oraliqlarida tebranish chastotasini ta'minlaydi.

4. Tizimning geometrik parametrlari ham hisobga olingan: tebranuvchi ramasining umumiy massasi $m_k = 65,2$ kg; masofasi $l_1 = 340$ mm, $l_2 = 680$ mm; mayatnik sifatida tebranish davri $T = 1,62$ s; etib o'lgan, bu mexanizm dinamikasini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Tizimning inersiya momenti $J_0 = 14,93$ kg·m² miqdorida aniqlangan.

5. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ishlab chiqilgan vibratsion kultivatorning konstruksiyasi texnikaviy jihatdan yangilikka ega bo'lib, bu O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "Intellektual mulk markazi" tomonidan berilgan FAP 2536-sonli foydali modelga patent bilan tasdiqlangan. Konstruksiya ikki asosiy ramadan iborat bo'lib, ularning biri traktorga biriktirilgan, ikkinchisi esa sharnir orqali bog'lanib, tebranuvchan harakat bajaradi. Bu echim mexanik tizimda yangi kinematik imkoniyatlar yaratadi va ishchi organlarga vibratsion harakat berish orqali tuproqni yuqori sifatda ishlash imkonini beradi.

6. Rezonans zonasida ishlash orqali ishchi organlar tebranish amplitudasini oshirish va shu orqali tuproqni samarali maydalash mumkin. Bu esa kultivatorning samaradorligini oshirib, energiya sarfini kamaytirishga imkon beradi. Shuningdek, rezonansda faza siljishi $\theta = \pi/2$ bo'lib, tebrantiruvchi kuch va harakat orasida 90° farq yuzaga keladi, bu esa tizimning barqaror ishlashini ta'minlaydi.

7. O'tkazilgan sinovlar natijasida vibratsiyali chizel-kultivator belgilangan texnologik jarayonni muvaffaqiyatli va barqaror ravishda amalga oshirgani aniqlandi. Sinov davomida jiddiy kamchiliklar qayd etilmadi, shuningdek, qurilmaning ish ko'rsatkichlari mavjud talablarga to'liq mos keldi.

8. Yangi vibratsion chizel-kultivatoridan foydalanish natijasida: Bir gektarga ishlov berish xarajatlari 184 503 so'mdan 176 326 so'mga kamaydi, ya'ni 4,4 % tejamkorlikka erishildi. Agregat bir mavsumda o'rtacha 150 gektar yerga ishlov bersa, yillik iqtisodiy foyda 1 821 442 so'mni tashkil qildi. Mehnat sarfi 2,9 % ga kamayadi, yonilg'i sarfi esa 8 kg/ha dan 7,5 kg/ha tushdi (6,25 % tejam). Umumiy ekspluatatsion harajatlari 4,43 % ga kamaygan. Ushbu ko'rsatkichlar yangi texnikaning amaliyotga joriy etilishi iqtisodiy jihatdan to'liq asoslanganini ko'rsatadi.

9. Mazkur ilmiy ish natijalari asosida ishlab chiqilgan vibratsion chizel-kultivator konstruksiyasi hozirgi qishloq xo'jaligi texnikasiga yangicha yondashuvni taklif qilmoqda. U yuqori agrotexnik ko'rsatkichlar bilan bir qatorda, iqtisodiy samaradorligi, energiya tejamkorligi va amaliy qulayligi bilan ajralib turadi. Kelgusida bu texnologiyani keng miqyosda tatbiq etish O'zbekistonning qishloq xo'jaligi sohasida raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD. 03/30.12.09.2019.Т.90.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ НАМАНГАНСКОМ
ИНЖЕНЕРНО-СТРОИТЕЛЬНОМ ИНСТИТУТЕ**

НАМАНГАНСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-СТРОИТЕЛЬНЫЙ ИНСТИТУТ

НАБИЖОНОВ УТКИРБЕК АСИЛБЕК УГЛИ

**РАЗРАБОТКА СПОСОБА ПЕРЕДАЧИ ВЫНУЖДЕННЫХ
КОЛЕБАНИЙ РАБОЧИМ ОРГАНАМ ПОЧВООБРАБАТЫВАЮЩИХ
МАШИН**

05.02.02-Теория механизмов и машин. Машиноведение и детали машин

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2024.2.PhD/T4668.

Докторская диссертация выполнена в Наманганском инженерно-строительном институте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу: www.namdtu.uz и Информационно-образовательном портале "ZiyoNet" (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Умурзаков Акрамжон Хакимович
доктор технических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Джураев Анваржон Джураевич
доктор технических наук, профессор

Нематов Эркин Хамраевич
доктор философии (PhD) по техническим наукам, доцент

Ведущая организация:

**Андижанский государственный
технический институт**

Защита диссертации состоится "___" _____ 2025 г. в ___ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.09.2019.T.90.01 при Наманганском инженерно-строительном институте (Адрес: 160103, г. Наманган, ул. Ислама Каримова, 12. Тел.: (+99869) 234-15-23, факс: (+99869) 234-15-23, e-mail: info@namdtu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского инженерно-строительного института (регистрационный номер _____). Адрес: 160103, г. Наманган, ул. Ислама Каримова, 12. Тел.: (+99869) 234-15-23, факс: (+99869) 234-15-23, e-mail: info@namdtu.uz.

Автореферат диссертации разослан "___" _____ 2025 года.
(Протокол рассылки № _____ "_____" _____ 2025 года).

Н.Г.Байбобоев
Председатель научного совета
по присуждению ученых
степеней, д.т.н., профессор

В.М.Турдалиев
Ученый секретарь научного совета по
присуждению ученой степени,
д.т.н., профессор

А.Х.Умурзаков
Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению
ученой степени, д.т.н., доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской (PhD) диссертации)

Актуальность и необходимость темы диссертации. Развитие машиностроения в мире, в частности совершенствование современной техники и технологий, создание новых конструкций и обоснование эффективных технических решений, увеличение производства конкурентоспособной продукции занимают одно из ведущих мест. В этом контексте, принимая во внимание тот факт, что “ежегодно в мире перед посевом сельскохозяйственных культур проводится обработка 1,6 миллиарда гектаров пашни”¹, становится очевидной необходимостью внедрения современных подходов в данную сферу. С целью модернизации процессов обработки почвы и повышения их эффективности, важной задачей является создание механизмов нового поколения с принудительными колебаниями рабочих органов, разработка методов их расчёта и внедрение в производство. В связи с этим, в настоящее время особое внимание уделяется использованию энергосберегающих и ресурсосберегающих вибрационных рабочих органов при совершенствовании почвообрабатывающих машин.

В мире становится всё более актуальной задача разработки ресурсосберегающих технологий качественной предпосевной обработки почвы, создания новых поколений машин и агрегатов для их реализации, а также совершенствования существующих конструкций с целью повышения качества работы и технических решений на научно-технической основе. В данном направлении важными задачами является разработка новой конструкции вибрационного чизель-культиватора, развитие методов его расчета, обоснование технологического процесса работы и обеспечение ресурсосбережения при взаимодействии с почвой.

В сельском хозяйстве Республики Узбекистан реализуются широкомасштабные меры по снижению трудозатрат и энергопотребления, экономии ресурсов, выращиванию сельскохозяйственных культур на основе передовых технологий, а также созданию высокопроизводительных сельскохозяйственных машин. В частности, особое внимание уделяется разработке технических средств, обеспечивающих выполнение заданных технологических процессов с минимальными энергозатратами, надёжно и качественно подготавливающих почву к посеву. В “Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020–2030 годы”, в частности, обозначены такие задачи, как: “...внедрение механизмов² по снижению участия государства в отрасли и увеличению притока частного

¹ www.fao.org/docrep/018/i1688ri1688r03.pdf

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853- son «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» gi Farmoni

инвестиционного капитала для поддержки модернизации, диверсификации и устойчивого роста аграрного и пищевого сектора, рациональное использование земельных и водных ресурсов, повышение производительности труда в фермерских хозяйствах, улучшение качества продукции”. Выполнение этих задач во многом связано с техническим и технологическим совершенствованием машин для качественной предпосевной обработки почвы, что, в свою очередь, способствует повышению урожайности сельскохозяйственных культур и снижению их себестоимости.

Настоящая диссертационная работа в определённой степени направлена на реализацию задач, обозначенных в Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года №ПФ-60 “О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022–2026 годы”, а также в Постановлении от 31 июля 2019 года №ПП-4410 “О мерах по ускоренному развитию сельскохозяйственного машиностроения и государственной поддержке обеспечения аграрного сектора сельскохозяйственной техникой”, и в других нормативно-правовых актах, касающихся данной сферы деятельности.

